

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA KASBLARNING TRANSFORMATSIYASI: XAVFLAR VA IMKONIYATLAR

Qobilova Osiyobonu Muzaffar qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
qobilovaosiyo3@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi jadal rivojlanib borayotgan jamiyatda Sun'iy Intellektdan foydalanish mehnat bozorida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqola sun'iy intellektning kasblarga ta'sirini o'rganadi va keltirib chiqaradigon muommolar va imkoniyatlarni solishtirgan holda tahlil qiladi. Qanday kasblar Sun'iy Intellekt natijasida avtomatlashtirilayotgani, mehnat bozoridagi jiddiy o'zgarishlar, xalqaro darajadagi tajribalarni ko'rib chiqadi. Natijalardan shunisi ma'lumki, Sun'iy Intellektning kasblarda joriy etilishi ularni avtomatlashtirilishiga olib kelishi bilan birga, yangi kasblarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni oshirmoqda.

Kalit so'zlar: avtomatlashtirilgan, Tor Sun'iy Intellekt, Jahon iqtisodiy forumi, irqiy, samaradorlik, raqamli texnologiyalar, qora va oq tanli, logistika, ma'muriy.

Abstract: In today's rapidly developing society, the use of artificial intelligence is causing significant changes in the labor market. This article examines the impact of Artificial Intelligence on professions and analyzes the resulting problems and opportunities by comparing them. It reviews which professions are being automated due to artificial intelligence, significant changes in the labor market, and international experiences. The results show that the introduction of Artificial Intelligence into professions, while leading to their automation, also increases the demand and need for new occupations.

Keywords: automated, Narrow Artificial Intelligence (Narrow AI), World Economic Forum, racial, efficiency, digital technologies, Black and White workers, logistics, administrative

Аннотация: В современном быстро развивающемся обществе использование искусственного интеллекта вызывает значительные изменения на рынке труда. В данной статье рассматривается влияние искусственного интеллекта на профессии и анализируются возникающие проблемы и возможности на основе их сопоставления. Обсуждаются профессии, которые автоматизируются под воздействием искусственного интеллекта, значительные изменения на рынке труда, а также международный опыт. Результаты показывают, что внедрение искусственного интеллекта в профессиональную деятельность, помимо автоматизации, также увеличивает спрос и потребность в новых профессиях.



Ключевые слова: *автоматизированный, узкий искусственный интеллект, Всемирный экономический форум, расовый, эффективность, цифровые технологии, чернокожие и белокожие работники, логистика, административный*

KIRISH

XXI asrda Sun'iy Intelлектning tez rivojlanishi jamiyatga, iqtisodiyotga, shuningdek, butun bir aholining turmush tarziga ta'sir qildi. Shuningdek, ko'plab mamlakatlarda raqamli intellektning ish joylarni o'zgartirishi va ishlab chiqarish, transport, moliya tizimidagi avtomatlashtirish jarayonlari ma'lum muommolarga sabab bo'lmoqda. Lekin bu masala yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, aynan qaysi kasblar avtomatlashtirish xavfi ostida ekanligi aniq statistik tahlil qilinmagan va ta'lim hamda siyosat tavsiyalari ishchi kuchini yangi tartibotga tayyorlash uchun yetarli emas deb qaraladi.


Sun'iy Intelлект – insoniyatga xos bo'lgan fikrlash, mantiqiy o'ylash, muommolarni hal qilish kabi qobiliyatlarga dastur va loyihalar orqali erishish texnologiyasi hisoblanadi. So'nggi yillarda Sun'iy Intelлектning hayotimizga jadal ravishda kirib kelishi, biznes va texnologik sohalarda samaradorlikni oshirish bo'yicha muhim vazifani bajarishiga turtki bo'lib kelmoqda. Masalan, logistika va ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalar keng tarzda qo'llaniladi. Ishlab chiqarishda Sun'iy Intelлектning Tor Sun'iy Intelлект turidan sanoat robotlari va sifat nazorat qilish tizimlari orqali foydalanib, barqarorlik ta'minlanadi. Chunki ishchi kuchidan farqli ravishda bu intellekt turi murakkab va tez jarayonlarni samarali bajaradi. Natijada, mehnat bozoridagi eski kasblarning sezilarli darajada qisqarishiga hamda ish jarayonlarining avtomatlashtirilishiga, shuningdek, kelajak ishchi kuchi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari insoniyat tilini tushunishi, foydalanuvchilarga aniq ma'lumot va tavsiyalar berishi mumkin. Sun'iy intellekt takroriy vazifalarni mukammal bajarishi, ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish, qarorlar qabul qilish kabi holatlarni rivojlantirishga va texnologiyaga bog'liq ish o'rinlarni yaratishi mumkin. Nielson kompaniyasining o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra generativ Sun'iy Intelлектni ishda joriy etish orqali xodimlarning samaradorligi 66%ga oshgan. Ammo bu holat ish o'rinlarining kamayishiga va etik masalalar bo'yicha muommolarga sabab bo'lishi mumkin. Aynan ish o'rinlarining kamayishi Sun'iy intellektning eng katta ta'siri hisoblanib, Goldman Sachz ma'lumotiga ko'ra taxminan 300 million to'liq stavkali ish o'rne generative SI natijasida avtomatlashtirishga duch kelishi mumkin ekan. Bu esa ijtimoiy muommolarni ayniqsa ishsizlik va daromadning sezilarli tushishini ko'rsatadi. Shu qatorda ish joylarida SIDan foydalanish inson ishchilarning psixologiyasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ishini yo'qotish qo'rquvsi, ishga bo'lgan ishtiyoqning pasayishi, inson muloqotining kamayishi, natijada esa stressning vujudga kelishiga sharoit yaratib beradi.



Sun'iy Intellektning mehnat bozoriga ta'sirini tushunish uchun avvalo kelajakda qaysi kasblar yo'qolish xavfi ostida ekanligi aniqlash zarur. Jahon iqtisodiy forumining Future of Jobs (2024) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-2030-yillardagi mehnat bozorida kutilayotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, SI va texnologiyalarga bog'liq bo'lgan yo'nalishlar eng tez rivojlanayotgan katagoriyalarni tashkil etib, ma'muriy hamda kotiblik, mahsulot tekshiruvchilik, moliya va bank sohasidagi ishlarning kamayishi kutilmoqda. Chunki bu vazifalar Sun'iy Intellekt tomonidan osongina bajariladi. Xitoy, Germaniya yoki shunga oxshash davlatlarning avtomatlashtirilgan zavod va fabrikalarida robotlarning 24/7 ishlashi natijasida kamchilik va xatolarning oldi olinadi. Shu qatorda Jahon iqtisodiy forumining ma'lumotlariga ko'ra, Sun'iy Intellekt va avtomatlashtirish 2028-yolga kelib butun dunyo bo'ylab mamlakatlarda 69 million ishchi o'rni yaratishi kutilmoqda. SI natijasida erishilgan samaradorlik esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. McKinseyning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Sun'iy Intellekt 2030-yilga kelib 13 trillion-dollar miqdorda global iqtisodiyotga foyda olib kelishi mumkin. Bundan tashqari raqamli texnologiyalarga ish o'rinlarini to'ldiruvchi sifatida qarash mumkin, ya'ni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan robotlar inson ishchilari bilan birgalikda ishlab, unumdorlikka sezilarli darajada hissa qo'shadi.

Sun'iy Intellektning mehnat bozorida qo'llanilishi ma'lum tengsizliklarni kuchaytirib yuborishi mumkin. Misol uchun qora tanli ishchilar avtomatlashtirish xavfi ostida bo'lgan ish o'rinlarda 24% ni tashkil etsa, oq tanlilar 20% ni tashkil etadi. Ya'ni qora tanli shaxslar ishlarini yo'qotish ehtimoli baland hisoblanadi. Shuningdek, yuqori malakali davlatlarda ayollarning 7.8% ini ish o'rni avtomatlashtirilishi, erkaklarning esa atiga 2.9% ini ish o'rni avtomatlashtirilishini ko'rsatadi.

Bu holat SIning irqiy, siyosiy va jinsiy guruhlariga ta'siri nomutanosib ekanligini ko'rsatadi.





Bunday vaziyatda, ko'nikma va yetuk bilimga ega ishchilarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ya'ni ishchilarga Sun'iy Intellect va avtomatlashtirish sharoitida ham ishlashi uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni berish zarur hisoblanadi. Ularni tayyorlash jarayonida ham ba'zi muommalarga duch kelish mumkin, Ya'ni resurslarning yetishmovchiligi yoki o'qituvchining yetarli ko'nikmaga ega bo'lmasligi mumkin, ammo bu muommolarni turli xil dasturlar orqali hal etish mumkin. Misol uchun, Germaniyaning ta'lim tizimida robototexnika va ishlab chiqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalar beriladi. Bu shuni ko'rsatadiki, mehnat bozoridagi Sun'iy Intellectning ijobiy va salbiy ta'sirini me'yorda ushlash uchun zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish darkor.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Sun'iy Intellectning biznes va texnologiyada foydalanish insoniyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishiga qaramasdan, kopchilik ishchilarning noroziligiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni raqamli texnologiyalar kam xatolar qilish orqali ishning samaradorligini, unumdorligini oshirib, global iqtisodiyotga hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyaning ta'siri hamma ijtimoiy guruh va yo'nalishlarda ham bir xil emas. ammo texnologik savodxonlikni oshirish orqali avtomatlashtirish davomida ham o'z ishini yo'qotmaslik mumkin. Shu bois ham, Sun'iy Intellect ham muommolar ham keng imkoniyatlar manbai sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. Artificial Intelligence Impact on Labor Markets, Literature Review: https://www.iedonline.org/clientuploads/EDRP_Logos/AI_Impact_on_Labor_Markets.pdf
2. "See How the Future of Jobs Is Changing in the Age of AI," World Economic Forum, May 3, 2023, <https://www.weforum.org/stories/2023/05/future-of-jobs-in-the-age-of-ai-sustainability-anddeglobalization/>.
3. "MGI-Notes-from-the-AI-Frontier-Modeling-the-Impact-of-AI-on-the-World-Economy-September2018.Pdf,"
4. Beatrice Nolan, "AI Systems like ChatGPT Could Impact 300 Million Full-Time Jobs Worldwide, with Administrative and Legal Roles Some of the Most at Risk, Goldman Sachs Report Says," Business Insider, accessed January 5, 2025, <https://www.businessinsider.com/generative-ai-chatpgt-300-millionfull-time-jobs-goldman-sachs-2023>.

